

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT KIMYO - TEXNOLOGIYA INSTITUTI
«Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi» fakulteti
«Kimyoviy texnologiya jarayon va qurilmalari» kafedrası

**“Navoiy EKZ” da yiliga 120 ming tonna metanol ishlab chiqarish
texnologiyasining issiqlik almashinish va gidromekanik jarayon va
qurilmalari hisoblansin va loyihalansin.**

BITIRUV ISHINI HISOB-IZOH
YOZUVI

Kafedra mudiri _____ Nig‘madjonov S.K

Bitiruv ishi rahbari _____

Qismlar bo‘yicha maslahatchilar:

Texnologik qism _____
(familiyasi, ismi, sharifi)(imzo)(sana)

Iqtisodiy qism _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo) (sana)

Mexnatni muxofaza qilish,
fuqaro muxofazasi _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo) (sana)

Ekologiya _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo) (sana)

Avtomatlashtirish _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo) (sana)

Bitiruv ishini
bajaruvchi _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo) (sana)

Toshkent-2017

TOSHKENT KIMYO TEXNOLOGIYA INSTITUTI
«Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi» fakulteti
«Kimyoviy texnologiya jarayon va qurilmalari» kafedrası
5320300-«Texnologik mashina va jixozlar(kimyo
sanoativaqurilishmateriallarikorxonalarinimashinavaapparatlaribo ‘yicha)»
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

«TASDIQLAYMAN»
«KTJQ» kafedra mudiri

dots. Nigmatjanov S.K.
2017y. «____»_____

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO‘YICHA TOPSHIRIQ

Talaba _____ «TMvaJ» guruhi
(f.i.sh)

Malakaviy bitiruv ishining mavzusi:

**“Navoiy EKZ” da yiliga 120 ming tonna metanol ishlab chiqarish
texnologiyasining issiqlik almashinish va gidromexanik jarayon va
qurilmalari hisoblansin va loyihalansin.**

____may 2017y. kafedra majlisining «№ ____ sonli bayonnomasida» ma’qullangan.

1. Malakaviy bitiruv ishini yakunlash muddati. «____» _____ 2017 y.

2. Malakaviy bitiruv ishini bajarishga doir boshlang‘ich ma’lumotlar.

3. Xisob-izox yozuvlarning tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro‘yxati):

1. Mundarija 2. Kirish 3. Texnologik sxema izohi 4. Ishlab chiqarishning asosiy jarayon va qurilmalarining nazariy asoslari 5. Jarayonlarni moddiy va issiqlik balanslari xisobi 6. Apparatlarni konstruktiv xisobi 7. Qurilma asosiy detallarini tayyorlash texnologiyasi 8. Avtomatlashtirish. 9. Ekologiya 10. Mexnatni muxofaza qilish, fuqoro muxofazasi 11. Iqtisodiy qism. 12. Bitiruv ishi bo‘yicha xulosalar.

4. Chizma ishlar ro‘yxati: 1. Asosiy texnologik sxema chizmasi. 2. Asosiy qurilmalar chizmasi. 2.1. Umumiy ko‘rinishi. 2.2. Bo‘ylama qirg‘im. 2.3. Ko‘ndalang qirg‘im. 2.4. Tepadan ko‘rinishi. 2.5. Qurilmaning ayrim qismlari va ko‘rinishlari.

5. Malakaviy bitiruv ishi bo'yicha maslaxatchilar.

<i>Nº</i>	<i>Qismlar nomi</i>	<i>Maslaxatchi o'qituvchi (f.i.sh)</i>	<i>Topshiriq berildi (imzo, sana)</i>	<i>Topshiriq bajarildi (imzo, sana)</i>
1.	Texnologik qism			
2.	Iqtisodiy qism			
3.	Avtomatlashtirish			
4.	Ekologiya			
5.	Fuqaro muxofazasi,			
6.	Mexnatni muxofaza qilish			

6. Malakaviy bitiruv ishi bajarish rejasi.

<i>Nº p/p</i>	<i>Malakaviy bitiruv ishi qismlarining nomi</i>	<i>Bajarish muddati (sana)</i>	<i>Bajarilgan lik belgisi (imzo, sana)</i>
1.	Kirish. Ishlab chiqarishning nazariy asoslari. Xom ashyo va maxsulotning fizik-kimyoviy xossalari		
2.	Tanlangan texnologik sxema bayoni. Texnologik qurilmalar taxlili.		
3.	Moddiy balanslar hisobi. Issiqlik balanslar hisobi. Konstruktiv hisoblar. Gidravlik hisoblar. Maxsus hisoblar.		
4.	Qurilma asosiy detallari tayyorlash texnologiyasi		
5.	Bitiruv ishi bo'yicha xulosalar. Texnologik sxema chizmasi. Asosiy qurilma chizmasi. Detalirovka. Bitiruv ishini taqrizga yuborish va dastlabki himoya. Bitiruv ishini DAKda himoya qilish.		

Malakaviy bitiruv ishi raxbari :

(f.i.sh) (imzo)(sana)

Topshiriqni bajarishga oldim

(f.i.sh) (imzo) (sana)

Topshiriq berilgan sana «____»_____2017 y.

M U N D A R I J A

№	M U N D A R I J A	4
1.	<u>Kirish</u>	6
2.	<u>Texnologik sxema izohi</u>	12
2.1.	<u>Metanolning xossalari</u>	12
2.2.	<u>Metanolni sanoatda qo'llanilishi</u>	13
2.3.	<u>Metanol asosida olinadigan birikmalar</u>	14
2.4.	<u>Metanol olish uchun qo'llaniladigan katalizatorlar</u>	14
2.5.	<u>Metanol olishdagi asosiy usullar</u>	16
3.	<u>Ishlab chiqarishning asosiy jarayon va qurilmalarining nazariy asoslari</u>	21
3.1.	<u>Issiqlik o'tkazishning umumiy tushunchalari</u>	21
3.2.	<u>Qobiq - trubali issiqlik almashinish qurilmalari</u>	22
3.3.	<u>Gidromehanik Jarayonlar</u>	27
3.4.	<u>Turli jinsli sistemalar klassifikatsiyasi</u>	28
3.5.	<u>Ajratish usullari</u>	29
3.6.	<u>Markazdan qochma kuch ta'sirida cho'ktirish</u>	30
3.7.	<u>Cho'ktiruvchi tsentrifuga</u>	33
4.	<u>Jarayonlarni moddiy va issiqlik balanslari hisobi</u>	34
4.1.	<u>Jarayonlarni moddiy va issiqlik balanslari hisobi</u>	34
4.2.	<u>Ajratish jarayonining moddiy balansi</u>	34
5.	<u>Apparatlarni konstruktiv hisobi</u>	36
5.1.	<u>Konvertirlangan gazni isitish uchun qobiq trubali issiqlik almashinish qurilmasi hisobi</u>	36
5.2.	<u>Metanolni fazalarga ajratish uchun tsentrifuga hisobi</u>	38
6.	<u>Qurilma asosiy detallari tayyorlash texnologiyasi</u>	41

7.	<u>Avtomatlashtirish</u>	51
8.	<u>Ekologiya</u>	55
9.	<u>Mexnatni muxofaza qilish</u>	61
10.	<u>Fuqoro muxofazasi</u>	66
11.	<u>Iqtisodiy qism</u>	71
12.	<u>Bitiruv ishi bo'yicha xulosalar</u>	75
13.	<u>Foydalanilgan adabiyotlar</u>	76

1. KIRISH

Mustaqil O'zbekistonda ijtimoy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining yaratilishi muxim xo'jalik tadbirlari bilan bir qatorda ishlab chiqarish tizimlarida tub o'zgarishlar yuz berishini ko'zda tutadi. Mamlakatimiz Prezident I.A.Karimov o'zining «Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning choralari va yullari» nomli asarida bank va moliya tuzilmalariga qo'shimcha yordam berish, iqtisodiyotning real sektori korxonalarining faolligini kuchaytirish, rag'batlantirish va boshqa chora-tadbirlarni ishga solishni ko'zda tutish kerakligini ta'kidlab o'tadilar. Shu bois sanoat korxonalarida mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish maqsadida mamlakatimizda innovatsion loyihalar borasida ko'plab amaliy ishlar olib borilmokda. Mamlakatimiz rahbari I.A.Karimov aytganlaridek, «Mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha katta va kichik loyihalarni izlash, buning uchun zarur mablag' va manbalarni topish - bu har bir korxona rahbari va muxandis-texnik xodimlarining birinchi navbatdagi eng muxim vazifasi va majburiyati bo'lmog'i kerak».

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov boshchiligidagi davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan o'zining mustaqil taraqqiyot yo'liga asoslangan holda to'la ishonch bilan bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tib bormoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, „Siyosiy mustaqillik rivojlangan, o'zaro mutanosib, to'laqonli iqtisodiyot bilan mustahkamlanmas ekan u bor yo'g'i quruq, balandparvoz gaplar, soxta obro' orttirish vositasiga aylanib qolaveradi.“ Mustaqillik yillari davomida milliy xo'jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, oldingi sotsialistik tizimdan meros bo'lib qolgan bir tomonlamalik va inqiroz holatdan chiqarildi. Prezidentimiz aytganlaridek “Avvalambor iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyot va uning ayrim sohalaridagi mutanosiblik kuchaydi”. Ushbu davrda bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi, ishlab chiqarish sanoati va kimyoviy sanoatda yangiliklar kiritildi,

rivojlantirildi. Hozirgi kunda esa iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ishlab chiqarish sohalarida islohotlar yanada chuqurlashtirish erkinlashtirish amalga oshirilmoqda. Eng muhimi shu davrda milliy istqilol g'oyasi va mafkurasi shakllanib, kishilarimiz ongiga singib bormoqda.

Agar oldimizda "Milliy boylikning ko'payishini, respublikaning mustaqilligini, odamlarning munosib turmush va ish sharoitlarini ta'minlaydigan qudratli, barqaror va jo'shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etish" kabi buyuk vazifa turganligini, bunday iqtisodiyot Prezidentimiz ta'biri bilan 5aytganidek, "Strategik maqsadimiz bo'lgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni barpo qilishning asosi" ekanligini e'tiborga olsak, bunday muammolarimiz naqadar ko'pligi va murakkabligi yanada ayon bo'ladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq.

Ana shunday muhim obyektlar haqida gapirganda, janubiy koreyalik investor va mutaxassislar bilan hamkorlikda Surg'il koni negizida barpo etilgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasini alohida ta'kidlamochiman. Umumiy qiymati 4 milliard dollardan oshadigan ushbu majmua dunyodagi eng zamonaviy, yuqori texnologiyalar asosida ishlaydigan, yirik korxonalardan biri bo'ldi. Majmuaning ishga tushirilishi yiliga 83 ming tonna noyob polipropilen mahsulotini ishlab chiqarish imkonini beradi. Holbuki, bu mahsulot ilgari mamlakatimizga chetdan, katta valyuta hisobiga olib kelinar edi. Ayni vaqtda mazkur korxona polietilen ishlab chiqarish hajmini 3,1 barobar ko'paytirish, mingdan ziyod yuqori malakali mutaxassislarni ish bilan ta'minlash uchun imkoniyat yaratishi bilan ulkan ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizning 2016-yilga belgilab olingan marra va maqsadlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlarini aniqlab olishda jahon miqyosidagi hali-beri davom etayotgan global inqiroz bilan bog'liq yuzaga kelayotgan jiddiy muammolarni hisobga olmasligimiz mumkin emas, albatta.[1]

Ana shu muammolar tufayli bugungi kunda dunyo bozorlarida talabning keskin kamayib, noaniqlik saqlanib qolayotgani, shafqatsiz raqobatning tobora kuchayib borayotgani, ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi jahondagi ko'pchilik davlatlarga salbiy ta'sir ko'rsatayotganining guvohi bo'lmoqdamiz.

Bunday o'ta murakkab vaziyat barchamizdan ertangi kunimizni ko'rishda, istiqbolimizni belgilab olishda, avvalo, eskicha qarashlar qolipidan voz kechishni, umrini o'tab bo'lgan, aytish mumkin, inersion usullardan to'liq voz kechishni talab etadi.

Biz uchun asosiy vazifa – ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zaxiralarni izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat bo'lishi zarur.

Ayni shunday yangicha qarash va harakatlar butun faoliyatimizning negizini tashkil etishi shart. Shu borada ichki imkoniyat va zaxiralarimizni ishga solishning eng muhim yo'nalishi bizning zaminimizdagi boy mineral xomashyo va o'simlik dunyosi resurslarini chuqur qayta ishlashni bosqichma-bosqich oshirib borish, shuningdek, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishning hajmi va turini kengaytirishdan iborat bo'lishi kerak.

Boshqacha aytganda, xomashyoni jahon bozorida talab katta bo'lgan mahsulotga aylantirish uchun qayta ishlashning 3-4 bosqichli tizimiga o'tishimiz zarur. Bu tizimning ma'no-mohiyati shundan iboratki, ubirinchi bosqichda xomashyoni dastlabki qayta ishlash, ya'ni yarim fabrikatlar tayyorlash, keyingi bosqichda sanoat asosida ishlab chiqarish uchun tayyor materiallarga aylantirish, uchinchi, yakuniy bosqichda esa iste'mol uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarishni nazarda tutadi.

Bu boradagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda har bir turdagi birlamchi xomashyo, ya'ni yarim fabrikatlarni chuqur qayta ishlashdan tortib, uni iste'mol uchun tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo'lgan yakuniy bosqichga

qadar butun ishlab chiqarish jarayonini kuzatib borish zarurati paydo bo'lmoqda. Muxtasar aytganda, ishlab chiqarishni tashkil etishning butun jarayonini – xomashyoni chuqur qayta ishlashdan toki uni tayyor mahsulotga aylantirishgacha bo'lgan yo'lini – siklini, sarflangan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi va nechog'liq o'zini qoplashini asoslab bergan holda, prognoz qilishni ta'minlash darkor.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish natijasida 2030-yilda, yangi turdagi tovarlar tayyorlashni o'zlashtirish asosida neft-gaz-kimyo sohasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 3,2 barobar, rangli metall mahsulotlari 2,2-marta, qora metallardan tayyorlanadigan buyumlar 2,3 karra, kimyo sanoati mahsulotlari, jumladan, mineral o'g'itlar 3,2 barobar ko'payishi mumkin. Ayni shu ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, ya'ni, jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilgan, o'zimizning resurs va imkoniyatlarimizni real baholagan holda, biz oldimizga aniq maqsadni – ya'ni, 2030-yilga borib mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 2 barobar oshirish vazifasini qo'yishimiz uchun bugun, hech shubhasiz, barcha asoslarimiz bor.

Neft-gaz sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri. Ushbu soha taraqqiyoti mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligi, sanoatining yuksalishi va xalqimiz farovonligi yanada oshishida muhim omil bo'ladi.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2015-yil 4-martdagi «2015-2019-yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi farmonida neft-gaz sanoatini rivojlantirishning yangi istiqbollari belgilab berilgan. Ushbu hujjatga muvofiq neft-gaz sanoatida tabiiy gaz va gaz kondensatini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish va turini kengaytirish, eksportni ko'paytirish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish va yangilarini barpo etish ishlari amalga oshirilmoqda. Joriy yilda umumiy qiymati 20,6 milliard dollarlik 38 investitsiya loyihasini bajarish

rejalashtirilgan. Buxoro viloyatida joylashgan Qandim gazkondensat konlari guruhini o'zlashtirishdagi asosiy ishlab chiqarish obyekti hisoblangan Qandim gazni qayta ishlash majmuasi ulardan biridir.[2]

“O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi Rossiyaning «LUKOYL» neft kompaniyasi bilan hamkorlikda “Qandim-Havzak-Shodi-Qo‘ng‘irot” mahsulotini taqsimlash to‘g‘risidagi bitim doirasida Qandim gazkondensat konlari guruhini o‘zlashtirish loyihasini amalga oshirmoqda. Ushbu guruhga Qandim gazkondensat konlari guruhini o‘zlashtirish loyihasini amalga oshirmoqda. Ushbu guruhga Qandim, QuvachiOlot, Oqqum, Parsanko‘l, Xo‘ja va G‘arbiy Xo‘ja kabi oltita gazkondensat koni kiradi.

Qandim gazni qayta ishlash majmuasi tarkibiga yiliga 8,1 milliard kub metr tabiiy gazni qayta ishlash quvvatiga ega zavod, shuningdek, 114 qazish qudug‘i, 11 maxsus maydon va 4 yig‘uv punktini o‘z ichiga olgan tabiiy gazni to‘plash tizimi kiradi. Bundan tashqari, 370 kilometr gaz quvuri, 160 kilometr avtomobil yo‘li qurish rejalashtirilgan. Majmua va infratuzilma obyektlarini barpo etishga 7 mingga yaqin kishi jalb etiladi.

– Bu kompaniyamizning O‘zbekistondagi eng yirik investitsiya loyihasidir, – dedi «LUKOYL» kompaniyasi prezidenti Vagit Alekperov. – Uskunalar yetkazib berish, gazni qayta ishlash majmuasini qurish va Qandim konlar guruhini jihozlash bo‘yicha shartnoma qiymati 2,7 milliard dollarni tashkil etadi. Dastlabki bosqichda ushbu loyihaga yo‘naltiriladigan jami investitsiya hajmi 3,3 milliard dollar miqdorida baholanmoqda. Bu yerga eng yaxshi mutaxassislar va zamonaviy texnologiyalar jalb etiladi, ishlab chiqarish xavfsizligi, mehnat va atrof-muhitni muhofaza qilishga doir barcha standartlarga rioya etiladi.

Muxtasar aytganda, Qandim gazni qayta ishlash majmuasining barpo etilishi O‘zbekiston gaz konlarini o‘zlashtirishni yangi bosqichga ko‘taradi. Markaziy Osiyodagi yirik ishlab chiqarish majmualaridan biri bo‘lgan ushbu zavodda 2 mingdan ziyod doimiy ish o‘rni yaratiladi.

Toshkentda “Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasida tozalangan metan asosida sintetik suyuq yonilg‘i ishlab chiqarish” loyihasiga bag‘ishlangan kreditorlar forumi bo‘lib o‘tdi.

Anjumanda eksport-kredit agentliklari, xalqaro neft-gaz kompaniyalari, moliya tashkilotlari, qator xalqaro institutlar vakillari qatnashdi. Tadbir “O‘zbekiston GTL” qo‘shma korxonasining “Oltin yo‘l GTL” zavodini loyihaviy moliyalashtirish masalalariga bag‘ishlandi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vaziri G.Saidova, “O‘zbekiston GTL” qo‘shma korxonasi bosh direktori J.Von va boshqalar Prezident Islom Karimov rahnamoligida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, jumladan, neft-gaz sohasini rivojlantirish, soha taraqqiyotiga xizmat qiladigan qulay sarmoyaviy muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar yuksak samaralar berayotganini alohida ta’kidladi. Sohada yangi korxonalar barpo etilib, mavjudlari zamon talablari asosida modernizatsiya qilinmoqda. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ichki bozorda mahalliy mahsulotlar ulushini ko‘paytirish, mahalliylashtirishni kengaytirish, korxonalararo kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyat va imtiyozlar yaratilmoqda.[3]

3. Ishlab chiqarishning asosiy jarayon va qurilmalarining nazariy asoslari

3.1. Issiqlik o'tkazishning umumiy tushunchalari.

Temperaturasi yuqori bo'lgan jismdan temperaturasi past jismga issiqlikni o'z - o'zidan, qaytmas o'tish jarayoniga issiqlik almashinish deyiladi.

Jarayonni qarakatga keltiruvchi kuchi, bu har hil temperaturali bo'lgan jismlarning temperaturalar farqidir. Termodinamikaning 2-qonuniga binoan, issiqlik qar doim temperaturasi yuqori jismdan temperaturasi past jismga o'tadi.

Issiqlik (issiqlik miqdori) - bu issiqlik almashinish jarayonining energetik harakteristikasi bo'lib, jarayon mobaynida uzatilgan yoki olingan energiya miqdori bilan belgilanadi.

Issiqlik almashinish jarayonida ishtirok etuvchi jismlar issiqlik tashuvchi eltkich yoki issiqlik eltkich deb nomlanadi.

Issiqlik o'tkazish - issiqlik energiyasining tarqalish jarayonlari to'qrisidagi fan.

Issiqlik almashinish jarayonlariga isitish, sovitish, kondensatsiyalash, buqlanish va buqlatishlar kiradi. Ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan qurilmalar issiqlik almashinish qurilmalari deb ataladi.

Ma'lumki, issiqlik almashinish jarayonlarida kamida 2 ta turli temperaturali muhitlar ishtirok etadi. O'z issiqlik energiyasini uzatuvchi, yuqori temperaturali muhit - issiqlik eltkich deb atalsa, issiqlik energiyasini qabul qiluvchi past temperaturali muhit esa-sovuqlik eltkich deb ataladi.

Issiqlik va sovukdik eltkichlar kimyoviy bardoshli bo'lishi, qurilmalarini emirmasligi va uning devorlarida qatgiq, g'ovak, quyqa qosil qilmasligi kerak. Shuning uchun, issiqlik yoki sovukdik eltkichlarni tanlashda jarayon temperaturasi, narhi va ularni qo'llanish sonlari kabi ko'rsatkichlarga katga aqamiyat berish kerak.

Temperaturasi turli bo'lgan muhitlar orasida issiqlik o'tkazish turqun va noturqun sharoitlarda amalga oshishi mumkin.

Turqun jarayonlarda kurilmaning temperatura maydoni vaqq o'tishi bilan o'zgarmaydi. Noturqun jarayonlarda esa, vaqq o'tishi bilan temperatura

o'zgaradi. Uzlüksiz ishlaydigan qurilmalarda jarayonlar turqun boradi, uzlukli (davriy) ishlaydigan kurilmalarda esa - jarayonlar noturqun bo'ladi. Undan tashqari, davriy ishlaydigan kurilmalarni yurgizish va to'htatish, qamda ish rejimlari o'zgargan qollarda noturqun jarayonlar sodir bo'ladi.

Issiqlik o'tkazish jarayonining asosiy kinetik karakteristikalari bo'lib, o'rtacha temperaturalar farqi, issiqlik o'tkazish koefficienti va uzatilayotgan issiqlik miqdorlari qisoblanadi.

Issiqlik almashinish qurilmalarini hisoblashda quyidagi parametrlar topiladi:

1. Issiqlik oqimi (qurilmaning issiqlik yuklamasi), ya'ni issiqlik

mikdori Q qisoblanadi. Issiqlik oqimini aniqlash uchun issiqlik balansi tuziladi va u Q ga nisbatan echiq topiladi;

2. Berilgan vaqt ichida zarur issiqlik miqdorini uzatishni ta'minlovchi qurilmaning issiqlik almashinish yuzasi aniqlanadi.

Buning uchun issiqlik otkazishning asosiy tenglamasidan foydalaniladi.

Issiqlik asosan 3 usulda uzatilishi mumkin. Issiqlik otkazuvchanlik, konvektsiya va issiqlik nurlanishi

3.2. Qobiq - trubali issiqlik almashinish qurilmalari

Qobiq - trubali issiqlik almashinish qurilmalari halq ho'jaligining turli soqalarida eng keng tarqalgan va ko'p ishlatiladigan turidir.

Rasmda trubalarning ko'zg'almas teshik panjarali, bir yo'lli, vertikal qobiq-trubali issiqlik almashinish qurilmasi tasvirlangan. Ushbu kurilma cilindr qobiq 1 va uning ikki chekkasiga isituvchi trubalar 3 maqamlangan teshikli panjara 2

lardan tarkib topgan. Trubalar o'rami issiqlik almashinish qurilmasining butun qajmini ikki ga bo'ladi: 1) truba bo'shliqi; 2) trubalararo bo'shliq. Teshikli panjara 2 lar cilindrik qobiq 1 ga payvandlash usulida maqkamlanadi. Kurilma qobiqiga boltli birikma yordamida 2 ta qopqoq maqkamlanadi. Issikdik eltkichlar kirishi va chiqishi uchun cilindrik qobiq 1 va qopqoq 5 larda patrubkalar o'rnatilgan. Issikdik eltkichlardan biri, masalan suyuqlik, trubalar bo'shliqiga yo'naltirilsa, u trubalar orqali o'tib qopqoqning patrubkasidan chiqib ketadi. Boshqa issiqlik eltkich oqimi esa, masalan but, trubalararo bo'shliqqa yo'naltiriladi, isituvchi trubalar tashqi yuzasiga o'z issiqligini beradi va suyuq afegat qolati (kondensat) ga aylanib qobiqning pastki patrubkasidan chiqazib yuboriladi. Muhitlar orasidagi issiqlik almashinish jarayoni trubalar devori orqali amalga oshiriladi. Isituvchi trubalar teshikli panjaraga payvandlash, razvaltsovka va usullarda maqkamlanadi. Ko'pincha, isituvchi trubalar po'lat, legirlangan po'lat, mis, latun, titan yoki boshqa materiallardan tayyorlanishi mumkin.

Isituvchi trubalar 3 ni teshikli panjaralar 2 da maxkamlashning eyg keng tarqalgan usuli bu oddiy razvaltsovkadir. Valtsovka nomli asbobda radial yo'nalishda qosil qilinadigan kuch ta'sirida truba deformatsiyaga (diametri ortadi, ya'ni kengayadi) uchrab, teshikli panjaraga zichlanadi va maqkamlanadi. Truba o'ramining to'r pardaga mustaqkam joylaigirishga erishish uchun teshikli panjarada eni 2...3,5 mm va chukurligi 0,4... 1,0 mm li ikkita qalqasimon ariqcha qilinadi. Undan tashqari, trubalarni teshikli panjaralarga payvandlash, kavsharlash, sal'nik yordamida qam maqkamlash mumkin. Sal'nik yordamida zichlash murakkab va qimmat. Bu usulda maqkamlash muhitlar temperatura farqi katta bo'lganda, trubalarning bo'ylama siljish iga imkon beradi, ammo bunda birikma zichlanishi buzulmaydi.

Trubaning kirish qismini konussimon razvalovka qilish, maqalliy qarshilik koeffitsientini sezilarli darajada pasaytiradi. Bu esa, o'z navbatida kirish qismining emirilish oldini oladi.

Agar, trubalar tebranish, tsiklik qizishga, temperaturalar katta o'zgarishi yoki ularning uchlari issiqlik ta'sirida o'ta isib ketish qollari yuz beradigan bo'lsa, unda trubalarning uchi albatta teshikli panjaraga payvandlanishi zarur. Payvandlash choki cho'ktirilgan, valik va ariqchada valik qoladi, qamda ariqcha va tishli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Odatda, qalin devorli trubalarni payvandlash maqsadga muvofikdir.

Agar, trubalar kuchlanish ostvda ishlatiladigan bo'lsa, portlatib payvandlash tavsiya etiladi. Ushbu usulda trubalarni maqkamlash uchun portlatish zaryad quvvati katta, teshikli panjaraning tashqi yuzasi razzenkovka qilishini va panjara tashqarisiga truba uchlari ko'p chiqib turishi kerak. Bu usulda truba teshikli panjaraga o'ta mustaqkam qolatda biriktiriladi. Agar, trubaning bir uchi panjaraga ushbu usulda portlatib payvandlansa, ikkinchi uchi esa portlatib razvaltsoovka qilinsa, eng yuqori musgaqkamlikka erishsa bo'ladi.

Xozirgi kunda trubalarni teshikli panjaraga maqkamlashning eng zamonaviy, ilqor texnologiyasi bu portlatib valtsovka qilishdir. Bunda, portlatuvchi zaryad truba ichida, ya'ni uchida joylashtiriladi. So'ng esa, zaryad kapsulya yordamida portlatiladi. Natijada, portlash energiyasi trubani radial yo'nalishda deformatsiya qiladi va teshikli panjara bilan truba mustaqkam birikma qosil qilib ulanadi. Bu usuldagi birikma, razvaltsoovka usuliniqiga qaraganda ancha mustaqkamroq bo'ladi. Portlatib payvandlash usulini trubalarni ta'mirlash uchun qam qo'llash mumkin. Trubalarni teshikli panjaraga elektrogidravlik maxkamlash va biriktirish usuli xam mavjud.

Qobiq trubali issikdik almashinish kurilmalarida truba teshikli panjaraga quyidagi usullarda joylashtirilishi mumkin:

- to'qri oltiburchak cho'qqi va qirralari yoki teng yonli uchburchak bo'ylab;
- kontsentrik aylanalar bo'ylab;
- kvadrat cho'qqi va tomonlari bo'ylab;
- shahmatli ko'riniicda (bir va qar hil ko'ndalang qadamli).

Ushbu usullarda trubalarni issikdik almashinish qurilmasida joylashtirish, qurilmaning ihsam bo'lish sharti bilan belgilanadi. Undan tashqari, qar bir qurilmaga iloji boricha ko'proq truba joylashtirishga qarakat qilinadi.

Kimyo mashinasozligida to'qri oltiburchak tomonlari va cho'qqalarida trubalarni joylashtirish keng tarqalgan. Bu usul uchun, trubalar sonini aniqlashga kuyidagi formula tavsiya etiladi:

$$n = 3a \cdot (a - 1) + 1$$

bu erda a - eng katga olti burchak tomonidagi trubalar soni; $b = 2a-1$ - eng katta olti burchak diagonalidagi trubalar soni.

Agar, trubalar teshikli panjaraga razval'covka usulida maqkamlansa, unda trubalarni joylashtirish qadami t ni, ularning tashqi diametriga d_m qarab, ushbu oralikdan tanlanadi:

$$t = (1,3...1,5) \cdot d_t$$

Payvandlab maxkamlashda esa - $t = 1,25 \cdot d_t$.

Issiqlik almashinish qurilmasining diametri quyidagi tenglamadan topiladi:

$$D = t(b - 1) + 4d_t$$

Trubalarning uzunligi zarur issikdik almashinish yuzasi F va trubaning o'rtacha diametri d_{yp} lardan kelib chiqqan xolda ushbu formulada xisoblanadi:

$$l = \frac{F}{\pi \cdot n \cdot d_{yp}}$$

Qobiq trubali issikdik almashinish kurilmalarida issikdik eltkichlarning yo'nalishi parallel yoki qarama qarshi bo'ladi. Issiq eltkich qurshtmaning yuqori qismidan trubalararo bo'shliqqa, sovuq eltkich esa. Pastki qismidan trubalar ichiga yuboraladi. Natijada, buq issiqligini beradi va soviydi, ya'ni kondensatga aylanadi va pasgga qarab qarakatlanadi. Temperaturasi ortishi bilan sovuq eltkichning zichligi kamayadi va u yuqoriga qarab ko'tariladi. Agar, suyuqliklar sarfi ko'p bo'lsa, ularning tezligi qam yuqori va issiqlik almashinish jarayoni intensiv bo'ladi.

Undan tashqari, suyuqliklarning qarama - qarshi yo'nalishida ularning tezliklari bir hilda taqsimlanib, qurilmaning bugun ko'ndalang kesimida issiqlik almashinishi o'zgarmas bo'ladi.

Trubalar bo'shliqidagi to'siqlar. Issiq-pik almashinish jarayonining tezligini oshirish uchun ikki va undan ortiq yo'lli isitkichlar qo'llaniladi.

Ikki va undan ortiq yo'lli kurilmalarda trubalarni sektsiyalarga ajratish uchun yoki suyuqlikning qarakat yo'li soniga qarab qurilmaning qopqoqi bilan truba teshikli panjarasining orasiga to'siqlar o'rnatiladi. Buning natijasida suyuqlik oqimi uchun yo'llar soni, ya'ni issiq-pik almashinish yuzasi ortadi.

Shunga aloqida e'tibor berish kerakki, qar bir sektsiyadagi trubalar soni bir hil bo'lishi zarur. Ikki va undan ortiq yo'lli kurilmalarda bir yo'nalishlarga qaraganda, suyuqliklarning tezligi yo'llar soniga qarab proporsional ravishda o'zgaradi.

Lekin, shuni unugmaslik kerakki, yo'llar soni ortishi bilan qurilmaning gidravlik qarshiligi qam ortadi va tuzilishi murakkablashadi.

Qopqoq bo'shliqida o'rnatiladigan to'siklarning qalinligi qopqoq diametriga bo'liq. Kam legirlangan va uglerodli po'latlardan tayyorlangan to'siqlarning qalinligi 9... 16 mm, mis va nikel qotishmalardan yasalganlarniki esa - 6... 13 mm bo'ladi. qopqoq va to'siqlarning materiali qar doim bir hil bo'lishi shart. Odatda, to'siqlar qopqoqlarga payvandlanadi yoki k'p'p'qoq bilan bir butun, yahlit qilib quyuladi.

Trubalararo bo'shliqdagi to'siqlar. Ma'lumki, issiqlik almashinish kurilmalarida birintshi muhit trubalar ichida qarakat qilsa, ikkinchisi - trubalararo bo'shliqca. Agarda, trubalar o'rami ko'ndalang qarakatlanayotgan issiqlik (yoki sovukdik) eltkich oqimi bilan yuvilib turilsa, issiqlik berish bo'ylama qarakatlanayotganga qaraganda, ancha intensiv bo'ladi.

Trubalar dasgasining egilishi va tebranishini, qamca trubalararo bo'shliqcagi trubalarning ko'ndalang oqim bilan yuvilib turishini tashkil etish maqsadida va

qobiq ichida suyuqlik qarakatining tezliklari yuqori bo'lishi uchun ko'ndalang to'siqlar o'rnatiladi.

Kimyo mashinasoaligida eng ko'p qo'llaniladigan bir tomonli 1 va 2 segment to'siqlar, disk-qalqa tipidagi to'siqlar va ikki tomonli segment to'siqlardir. Undan tashqari truba o'ramini yopuvchi, uch tomonlama joylashtiriladigan va boshqa turdagi segment to'siqlar ishlatiladi.

Bosim yo'qotilishi qqr ni kamaytirish maqsadida ikki tomonlama va uch tomonlama joylashtiriladigan segment to'siqlar qo'llaniladi. Bu ikki turdagi to'siqlar qqr yuqotilishini 60...100% ga pasaytirish imkonini beradi.

To'sikdankesibolinganqismiorqalisuyuqlikbirbo'limdanikkinchisigaoqibo'tadi. Uning balandligi h ning qobiq diametri D_m ga nisbati odatda kuyidagi son qiymatlarga teng:

bir tomonlama segment to'siq uchun $h/D_{ich} = 0,15...0,4$;

ikki tomonlama segment to'siq uchun $h/D_{ich} = 0,2...0,3$.

Ko'ndalang to'sikdar bir qavatli yoki bir necha perforatsiya qilingan listlardan yiqilgan bo'lishi mumkin. Odatda, bitta listning qalinligi

$\delta - 1,5...2$ mm bo'ladi.

3.3. Gidromehanikjarayonlar

Gidromehanik jarayonlarga kuyidagilar kiradi: suyuq va gazsimon turli jinsli sistemalarni gravitatsion (cho'kgirish), markazdan qochma (Tsentrifugalash) yoki elektr maydoni kuchlari ta'sirida qattiq zarrachalardan tozalash; bosimlar farqi ostida suyuqlik va gazlarni govak to'siqlar orqali o'gkazib filtrlash; suyuqlik muhitlarida aralashtirish; mavqum qaynash va boshqalar.

3.4. Turli jinsli sistemalar klassifikatsiyasi.

Kamida ikkita xar hil fazalardan (suyuqlik - qatgiq jism, suyuqlik -gaz va q.k.) tarkib topgan aralashmalar turli jinsli sistemalar deb nomlanadi. Zarrachalari o'ta mayin yanchilgan qolatdagi faza dispers yoki ichki faza deb ataladi. Dispers faza zarrachalarini o'rab olgan muhit esa - dispersion yoki tashqi faza deb ataladi. Fazalarning fizik qolatiga qarab turli jinsli sistemalar quyidagi guruqlarga bo'linadi: suspenziya, emulsiya, ko'pik, chang, tutun va tumanlar.

Suyuqlik va qattiq zarrachalardan tashkil topgan turli jinsli sistema suspenziya deb ataladi. qattiq zarrachalar o'lchamiga qarab suspenziyalar shartli ravishda quyidagi turlarga bo'linadi: daqal (>100 mkm); mayin ($0,5...100$ mkm); loyqa ($0,1...0,5$ mkm) suspenziyalar va kolloid eritmalar ($<0,1$ mkm).

Biri ikkinchisida erimaydigan, dispers va dispersion fazalardan tashkil topgan aralashma sistemasi emulsiya deb nomlanadi. Dispers faza zarrachalarining o'lchami keng oralikda o'zgarishi mumkin. Odatda, emulsiya og'irlik kuchi ta'sirida qatlamlarga ajraladi. Lekin, dispers faza tomchilari $0,4...0,5$ mkm dan kichik bo'lsa yoki sgabilizatorlar qo'shilgan qollarda emulsiyalar turqun bo'ladi va uzoq muddat davomida qatlamlarga ajralmaydi. Dispers faza konsentratsiyasi ortishi bilan dispers faza dispersion fazaga o'tishi va teskarisi bo'lishi mumkin. Bunday o'zaro almashinish qodisasi fazalar inversiyasi deyiladi.

Suyuqlik va unda taqsimlangan gaz pufakchalaridan tashkil topgan sistemalar ko'piklar deb ataladi. Ko'piklar o'z hossalari bo'yicha emulsiyalarga yaqin.

Gaz va unda taqsimlangan $0,3...5$ mkm o'lchamli qatgiq zarrachalardan tashkil topgan sistemalar tutunlar deb nomlanadi. Tutunlar buq (yoki gaz) larning suyuq yoki qatgiq qolatga kondensatsiyalanish jarayoni orqali o'tishda qosil bo'ladi. Undan gashqari, qatgiq yoqipqilar yonishi natijasida qam paydo bo'ladi.

Gaz va unda taqsimlangan $3...70$ mkm o'lchamli qatgiq zarrachalardan tashkil topgan sistemalar chang lar deb ataladi.

Ko'pincha changlar qattiq materialni maydalash, aralashtirish va ma'lum masofaga uzatish paytida qosil bo'ladi. Dispersion gaz va o'lchami 0,3...5 mkm bo'lgan dispers suyuq fazalardan tashkil topgan sisgemalarga tumanlar deyiladi. Tumanlar suv buqini sovitish jarayonida, buqning kondensatsiyalanishi natijasida qosil bo'ladi. Tutun, chang va tumanlar - aerozollar deb yuritiladi.

3.5. Ajratish usullari.

Kimyo va oziq-ovqat sanoatlarida turli jinsli sistemalarni tashkil etuvchi fazalarga ajratishga to'g'ri keladi. Masalan, vino ishlab chiqarishda uni tindirish, ya'ni muallaq qolatdagi zarrachalarni, suyuq fazadan ajratish. Ajratish usullarini tanlashda dispers faza o'lchamiga, fazalar zichliklari farqiga va dispersion faza qovushokdigiga aqamiyat berish zarur. Turli jinsli sistemalarni ajratish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi: a) cho'kgrish; b) filtrlash; v) Tsentrifugalash; g) suyuqdik yordamida ajratish.

Og'irlik kuchi, inertsiya (jumladan, markazdan qochma) yoki elektrostatik kuchlar yordamida turli jinsli sistemalar tarkibidagi qatgiq yoki suyuqdik zarrachalarini ajratish jarayoni cho'ktirish deb nomlanadi. Agar, jarayon faqat og'irlik kuchi ta'sirida olib borilsa tindirish deb yuritiladi. Tindirish odatda turli jinsli sistemalarni dastlabki ajratish uchun ishlatiladi.

Filtrlash - turli jinsli sistemalarni g'ovaksimon to'siq filtr yordamida ajratish jarayonidir. Bunda, g'ovaksimon to'siq suyuqlik yoki gazni o'tkazib yuboradi, ammo muhitdagi qatgiq zarrachalarni ushlab qoladi. Suspenziya, emulsiya va changlarni ajratish uchun cho'ktirish jarayoniga qaraganda filtrlash ancha samarali.

Tsentrifugalash suspenziya va emulsiyalarni markazdan qochma kuch ta'sirida ajratish jarayonidir. Bu jarayonda yahlit yoki govaksimon to'siqlar qam ishlatiladi. Tsentrifugalash jarayonida cho'kma va suyuq faza (fugat) qosil bo'ladi.

Suyuqlik yordamida ajratish usuli deb - gaz tarkibidagi qatgiq zarrachalarni birorta suyuqdik ishtirokida ushlab qolish jarayoniga aytiladi. Bu jarayon og'irlik yoki inertsiya kuchlari ta'sirida olib boriladi va gazlarni tozalash uchun ishlatiladi. Ba'zan, bu usuldan suspenziyalarni ajratishda qam foydalanish mumkin.

3.6. Markazdan qochma kuch ta'sirida cho'ktirish.

Emulsiyadagi suyuqlik tomchilarini va suspenziyadagi qatgiq zarrachalarni markazdan qochma kuchlar maydonida ajratish jarayoniga centrifugalash deyiladi. Tsentrifugalash jarayonini amalga oshiradigan kurilma Tsentrifuga deb nomlanadi.

Markazdan qochma kuch ta'sirida suspenziya cho'kma va fugat deb nomlanuvchi suyuqlik fazalarga ajraladi. Odatda cho'kma kurilma rotor ichida qoladi, fugat esa - tashqariga chiqariladi.

Tsentrifuga ishlash paytida qosil bo'ladigan markazdan qochma kuch cho'ktirish jarayonidagi og'irlik va filtrlashdagi gidrostatik kuchlarga nisbatan ancha katta bo'ladi. Shuning uchun turli jinsli sistemalarni ajratish uchun qo'llaniladigan cho'ktirish va filtrlash jarayonlariga qaraganda Tsentrifugalash juda samarali qisoblanadi.

Tsentrifuganing asosiy qismi gorizontal yoki vertikal o'qga o'rnatilgan va katga tezlikda aylanuvchi cilindrik rotor bo'lib, u elektr yuritkich yordamida aylanma qarakatga keltiriladi. Markazdan qochma kuch ta'sirida turli jinsli sistemadagi qattiq zarrachalar cho'kmaga tushib, suyuqlikdan ajraladi.

Ajratish printsipiga qarab, Tsentrifugalar 2 hil bo'ladi: filtrlovchi va cho'kgiruvchi Tsentrifugalar.

Cho'ktiruvchi Tsentrifuganing cilindrik rotor yahlit devorli bo'lib, emulsiya va suspenziyalarni cho'ktirish printsipi asosida ajratadi. Bu kurilmada ajratish jarayonida og'irlik kuchi o'rniga markazdan qochma kuch ishlatiladi. Cilindrik rotor aylanishi natijasida qosil bo'ladigan markazdan qochma kuch ta'sirida suspenziya yoki emulsiya rotor devoriga qarab qarakat qiladi. Zichligi yuqori bo'lgan qattiq zarrachalar rotor devorida, zichligi kamroqi esa - o'q atrofida yiqiladi.

Filtrlovchi Tsentrifuga rotor g'ovaksimon bo'lib, emulsiya va suspenziyalarni filtrlash printsipi asosida ajratadi. Bu kurilmalarda, ajratish jarayonida bosimlar farqi o'rniga, markazdan qochma kuch ishlatiladi.

Bu turdagi Tsentrifugalarda suspenziya yoki emulsiya rotor devoriga qarab qarakat qiladi va fazalarga ajraladi. Fazalarga ajratish jarayoni quyidagicha ro'y beradi: suyuq faza rotorning to'siqidan o'tib, kurilma qobiqiga yiqiladi va shtucer orqali chiqariladi. qattiq faza esa, filtrlovchi to'sikda ushlanib qoladi va undan so'ng rotordan tushiriladi.

Ishlash printsiptiga ko'ra Tsentrifugalarda davriy va uzluksiz bo'ladi. Rotor o'qining o'rnatilishiga qarab, gorizontal va vertikal Tsentrifugalarda bo'ladi. Davriy ishlaydigan Tsentrifugalarda cho'kma qo'l, og'irlik kuchi yoki pichoq yordamida tushiriladi. Uzluksiz Tsentrifugalarda cho'kma shnek yordamida inertsiya va pulsatsion kuchlar yordamida tushiriladi.

Filtrlovchi va cho'ktiruvchi Tsentrifugalarda ajratish, jarayonlarining taqlili shuni ko'rsatadiki, cho'ktirish va filtrlash jarayonlar bilan Tsentrifugalash orasida o'hshashlik ko'p va qamma jarayonlarning umumiy qonuniyatlari qam o'hshashdir.

Tsentrifugalarda xosil bo'ladigan markazdan qochma kuch ushbu tenglik bilan ifodalanadi:

$$C = \frac{mw^2}{r} = \frac{Gw^2}{gr}$$

bu erda: t - aylanuvchi jism massasi [kg]; G - aylanuvchi jism og'irligi [N]; w - rotorning aylanish tezligi [m/s]; g - erkin tushish tezlanishi [m^2/s]; g - aylanish radiusi [m].

Rotorning aylanish tezligi ushbu tenglikdan topiladi:

$$w = Wr = \frac{2\pi n}{60} r$$

bu erda: W - burchak tezligi [rad/s]; n - aylanish soni [ayl/min].

Yuqoridagi tengliklardan markazdan qochma kuchni aniqlaymiz:

$$C = \frac{G}{gr} \left(\frac{2\pi n}{60} \right)^2 \quad yoki \quad C \approx \frac{Grn^2}{900}$$

Shunday qilib, rotor diametrini ko'paytirishga qaraganda, uning aylanish sonini oshirish, markazdan qochma kuchning o'sishiga olib keladi.

Tsentrifugalarning ish unumdorligi ajratish koefitsientiga bog'liq. Tsentrifugalarda ajratish koefitsienti markazdan qochma kuchlar maydonida qosil bo'lgan kuchlanish bilan harakterlanadi. tsentrifugada qosil bo'layotgan markazdan qochma kuchlar miqdorining og'irlik kuchi tezlanishidan necha marta ko'pligini ko'rsatuvchi kattalik ajratish koefitsienti deb nomlanadi:

$$K_a = \frac{w^2}{rg}$$

Tsentrifuga rotori aylanish chastotasining ortishi va uning diametri kamayishi bilan markazdan qochma kuch maydonida ajratish samaradorligi ortadi. Agar, aylanish tezligini aylanish chastotasi orqali, ifodallasak ajratish koefitsientini aniqlash uchun ushbu ko'rinishdagi formulani olamiz:

$$K_a \approx \frac{rn^2}{900}$$

3.7. Cho'ktiruvchi tsentrifuga.

Bu turdagi kurilmalar rotori yahlit metapldan tayyorlanadi. Ularning ishlash printsihi huddi tindirgichlarnikiga o'xshashdir. Boshlanqich aralashma qurilma rotoriga truba orqali uzatiladi. Rotor ning aylanishi natijasida markazdan qochma kuch ta'sirida zichligi yuqori bo'lgan zarrachalar rotorning ichki yuzasiga to'planadi, zichligi kamroqi esa, aylanish o'qiga yaqinroq joyda yiqiladi. Tozalangan suyuqlik, ya'ni fugat, qobiq dagi shtutser orqali tashqariga chikrriladi. Rotor devorida qosil bo'lgan cho'kma esa, jarayon to'gagandan so'ng to'kiladi. [4,8,14]


6. Qurilma asosiy detallari tayyorlash texnologiyasi

Kesish. Kesish jarayoni prokat, pokovka yoki listdan ortiqcha bir qism materialni kesib olib tashlashdir.

Qo'llaniladigan vosita, moslama va uskunalar turiga qarab, kesish usullarini 3 guruhga bo'lish mumkin:

1. mehanik;
2. gaz-alangali;
3. elektr yoyli;

Mexanik kesish. Ushbu usulda qalinligi 40 mm gacha bo'lgan list yoki sortli prokat kesilishi mumkin. Mexanik kesish ikki hil bo'ladi: kirindi olmasdan (gil'otin va diskli qaychida, pressda) va qirindi olib (frezerlash, diskli arra va kesgich bilan kesish).



1 - elektr yuritkich, 2 – shkiv-mahovik,

3 – uzatuvchi mexanizm, 4 – harakatchan pichoq,

5 – qo'zg'almas pichoq.

Qaychilarda kesish jarayoni asbob pichoqlari bilan material mustahkamlik chegarasidan yuqori kuchlanish hosil qilishga asoslangan. Jarayon boshida material eziladi, so'ng esa kesish kuchlanishi ortishi bilan urinma kuchlanishidan katta siljish kuchlanishi hosil bo'ladi. Zagotovkaning 0,2-0,5 qalinligiga qaychi

pichoqlari botganda, materialning bir qismi ikkinchisidan ajraydi. Kuch R qaychi pichoqlarining turli teshiklariga uzatilayotgan bo'lgani uchun eguvchi moment $M=R \cdot a$ va unga qarshi moment $M_1=T \cdot s$ lar hosil bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan momentlar ta'sirida zagotovka gorizontal tekislikda ma'lum bir γ burchakka og'ishga harakat qiladi. Albatta, bunday hol kesish jarayoniga salbiy ta'sir etadi. Og'ish burchagini kamaytirish maqsadida qaychiga maxsus moslama o'rnatiladi.

Mexanik kesish jarayonida materialning kesilish joyida ayrim nuqsonlar paydo bo'ladi: darz ketish, ezilish vapitir (zausenes) lar. Metallarda kristallik tarkibining o'zgarish hollari paydo bo'ladi. Shu sababli, ayrim guruhdagi detallarga qo'shimcha mexanik ishlov berish kerak.

Payvandlanuvchi konstruksiya detallariga kesishdan so'ng, mexanik ishlov berish zarurati yo'q.


Mexanik kesish metallarning sovuq holatida bajariladi. Organik, nometall materiallar (tekstolit, viniplast, getinaks, orgsteklo va h.) ni kesishda, ularni dastavval qizdirish kerak. Fibra va kartonni kesishdan avval esa, namlash zarur.

Tebranma qaychilar – to'g'ri chiziqli va murakkab shaklli detallarni yupqa list ($<2,5$ mm) lardan kesish uchun mo'ljallangan. Bu qaychilar ikkita kalta pichoqli bo'ladi. Pastki pichoq qo'zg'almas. Tepa pichoq esa – ilgarilama-qaytma yoki tebranma harakatlanadi. Listni kesish tepa pichoqning tebranma va ilgarilama harakati tufayli sodir bo'ladi. Qaychi surilishi qo'l yordamida amalga oshiriladi.

Listni fasonli kesish uchun pnevmatik qaychilar ishlatiladi.


Kesish jarayoni tepa pichoqning tez-tez ilgarilama-qaytma harakati tufayli sodir bo'ladi.

Friksion kesish – material katta tezlikda harakatlanayotgan lenta orasida hosil bo'ladigan ishqalanish kuchlaridan foydalanishga asoslangan. Qalinligi 3 mm li listlarni qalinligi 1 mm gacha bo'lgan po'lat lenta bilan kesish mumkin. Bundan qalin listlarni kesish uchun tishli lentalardan foydalanish kerak.



6.3 – rasm. Pnevmatik qaychi.

1 – material, 2 – pnevmobolg'a, 3 –
tebranmapichoq, 4 – qo'zg'almas pichoq,
5 – tayanch.



6.4 – rasm. Friksion keskich.

Ushbu usulda kesish uchun oddiy lentali arralarni qo'llash mumkin. Lentaning tezligi material qalinligi bilan belgilanadi va u 1000-4000 ayl/min oralikda bo'ladi.

Friksion usulda plastmassa, silikat material va istalgan kattiklikdagi metallarni kesish oson.

Qirindisini olib kesish. Truba, chiviq yoki turli prokatlarni kesish uchun diskli arralar, frezerlash, tokarlik yoki boshqa dastgohlar ishlatiladi. Ushbu dastgohlarda material kesilganda qirindisi ham olinadi.

Dastgohlarni qo'llash ham kesish, ham list qirrasidan rah (faska) olgan hollardagina samarali. Obechayka, dnishe, qobiq, teshikli panjara, flanes va boshqa detallarning qirralariga mehanik ishlov berishni karusel dastgohlarida ham bajarsa bo'ladi.

Gaz-kislorod alangasida qizdirib, kislorod oqimida kesish.

Metallarni bu usulda kesishda avval uning kesish joyi gaz alangasiga alangalanish temperaturasi (po'latlar uchun $\sim 900^{\circ}\text{S}$ gacha) obdon qizdirilib, keyin u erga kislorod haydaladi. Demak, bu jarayonda metallning kesilishi, uning kislorod oqimida yonishiga asoslangan. SHuning uchun, bu usulda kesiladigan metallarning alangalanish temperaturasi suyuqlanish temperaturasidan past bo'lishi, yonganda ajraluvchi issiqlik uning quyi qatlamlarini alangalanish temperaturasigacha qizdira oladigan bo'lib, hosil bo'lgan shlakning suyuqlanish temperaturasi shu metallning suyuqlanish temperaturasidan past, yuqori

suyuqlanuvchan bo'lishi, hamda kesilgan joydan osonroq ajralishi kerak.

Yuqori qayd etilgan talablarga tarkibida uglerodi 0,7 % gacha bo'lgan va ba'zi bir kam legirlangan konstruksion po'latlar to'la javob beradi. Uglerodning 0,7 % dan ortishi bilan ularni kesish qiyinlashadi. Po'latlar tarkibidagi legirovchi elementlarning ko'pligi, shuningdek, cho'yanlar va rangli metallar va ularning qotishmalari yuqorida qayd etilgan talablarga to'la javob bermaydi. Shuning uchun, ular kislorod oqimida kesilmaydi. Mabodo, ularni kesish zarur bo'lsa, flyus (ko'p hollarda, temir kukuni) dan foydalaniladi.


Bunda kukun tarzidagi flyus, kislorod oqimi bilan birga kesish zonasiga o'tib, yonganda qo'shimcha issiqlik ajraladi. Natijada, suyuqlanish temperaturasi yuqori bo'lgan oksidlar suyulib, kesish zonasidan purkalib, tashqariga chiqadi.

Metallarni kislorod oqimida kesish uchun keskich asboblardan foydalaniladi. Bu ish dastaki, yarim avtomatik va avtomatik ravishda bajariladi. Metallarni mahsus keskich gorelkalar bilan kesiladi va ular keskich (rezak) deyiladi. Metallarni dastaki usulda kesishda universal keskich (UR tip) dan foydalaniladi.

Bu keskichning payvandlash gorelkalaridan farqi shundaki, unda kesuvchi kislorodni haydash uchun, qo'shimcha maxsus qismi bo'ladi. Uni ishga tushirish uchun ventillar 3 va 4 ochilib, kanal 1 orqali kislorod, kanal 2 orqali esa - asetilen yuboriladi. Kislorod ventillari ochilganda, kislorod injektor 5 orqali o'tib, asetilenni so'radi, u kamera 6 da aralashadi. Bu aralashma gaz mundshtugi 8 ning 9 raqami bilan belgilangan teshigidan chiqayotganda yondiriladi. Metall, alanganish temperaturasigacha qizdirilgach, kesish asbobining 10 raqami bilan belgilangan teshigidan kislorod haydaladi. Bunda keskich mundshtugini metallning qirqiladigan joyidan 3-6 mm oraligida tutib turib, yuzaga tik yo'naltiriladi. Turli qalinlikdagi metallarni qirqish uchun keskichning ikkita tashqi va beshta almashtiriladigan mundshtugi bo'ladi.

Keskichning oldinga surilish tezligi, kesiluvchi metallning qalinligiga bog'liq bo'lib, u qancha qalin bo'lsa, shuncha sekin suriladi.

Dastaki keskichlarda qalinligi 6-300 mm bo'lgan kam uglerodli po'latlarni 550–800 mm/min tezlikda, mahsus keskichlar yordamida 3 m gacha va undan ortiq qalinlikdagi metallarni kesish mumkin. Buyumning kesilayotgan eni 2 dan 10 mm gacha bo'ladi.



6.5 – rasm. UR tipidagi keskichning sxemasi.

1, 2 – trubka, 3, 4, 7 – ventil, 5 – injektor, 8 – munshtuk, 9,10 – teshik.

Kesish texnikasi. Metallarni kislorod oqimida kesishdan avval kesiladigan joylardagi zang, bo'yoq, kir kabilardan tozalash lozim. Keyin uni zarur moslamaga kesiladigan joyini kesishga qulay qilib o'rnatib, keyin kesiladigan joyi gaz alangasida alangalanish temperaturasigacha obdon qizdirilgach, kislorodni bu joyga zarur bosimda haydash bilan kesish chizig'i bo'ylab bir tekisda oldinga surila boradi. Kesish, kesiluvchi metallning qalinligiga bog'liq

Qalinligi ortishi bilan, u ham ortadi. Bu usulda buyumlar sirtidagi ortiqcha metallarni kesib tashlashda, cho'yan va po'lat buyumlarni ta'mirlashda va boshqa shunga o'hshash ishlarni bajarishda ham foydalaniladi.


Grafit va metall elektrod bilan elektr yoy yordamida kesish. Bu usulda metallarni ko'mir yoki metall elektrodlar bilan elektr yoy yordamida kesishda, metall yoy issiqligi ta'sirida erib, kesish joyidan o'z og'irligi va yoy gazi ta'sirida ajralib, qirqiladi. Ma'lumki, kesiluvchi metallning suyuqlanish tezligi tok kuchiga bog'liqligi sababli, ko'mir elektrod bilan kesishda tok kuchi 400 – 1500 A, metall elektrodlar bilan kesishda esa 300 – 600 A orasida bo'ladi. Bu usuldan ko'p uglerodli po'latlarni va cho'yanlarni kesishda foydalaniladi.

Grafit elektrod va elektr yoy yordamida eritilgan metallarni siqilgan havoda kesish. Bu usulda grafit elektrod o'zgarmas tok zanjiri qutbiga teskari

ulanadi. Tok kuchi 150 – 400 A atrofida, haydaluvchi havo bosimi esa - 0,4 MPa ga yaqin bo'ladi. Bu usul qalinligi 20 mm gacha bo'lgan zanglamas po'lat listlarni kesishda, quymalarning nuqsonli joylarini qirqishda qo'llaniladi. SHuningdek, kalinligi 100–120 mm gacha bo'lgan alyuminiy, mis va ularning qotishmalari, zanglamas po'latlar plazma oqimida kesiladi.

Bukish. Kuchlanish ta'siri ostida zagotovka shaklini o'zgartirish jarayoni bukish deb nomlanadi. Ushbu kuchlanish bir-biriga zarur burchak ostida joylashgan bir yoki bir nechta tekisliklarga ta'sir etadi. Quyidagi rasmda bukilayotgan zagotovka elementi keltirilgan. Quyidagi rasmdan ko'rinib turibdiki, material ichki qatlamlari siqilmokda, tashqisi esa – cho'zilmoqda. Bukish jarayonida material ichidagi siqilmaydigan va cho'zilmaydigan chiziq neytral chiziq deb ataladi. Bukish sovuq va issiq holatlarda olib boriladi.

Yordamchi moslamalar sifatida puanson, plita yoki valets (rolik)lar qo'llaniladi. Sovuq holatda bukish, material buzulishiga yo'l qo'ymaydigan kuchlanishlarda olib borish ruxsat etiladi.




6.7 – rasm. Bukulish jarayonida ischgi kuchlanishning taqsimlanishi.


R_{vH} – detal tashqi radiusi, R_{HH} – neytral chiziq radiusi, R_f – bukulish radiusi.

Profillash – bu listli zagotovkalardan turli shakldagi qattiq va engil profillarni olish jarayoni. Ushbu jarayon shtamp yoki mahsus rolikli mashinalarda tayyorlanadi. Birinchi usul detal (qopqoq, yupqa qobiq devori va h.) larga qattiqlik ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Shtamplash usulida profillash matrisa va puansonlar yordamida amalga oshiriladi. Matrisa va puansonlar ariqchalari va bo'rtiq joylarining shakli turlicha buladi. Zarur shakl olish uchun bir yoki bir nechta marotaba shtamplash kerak.



6.8 –rasm. Yupqa qatlamli materiallarda qattiqlik qovurg‘alarining turlari



6.9 –rasm. Lentali zagotovkalarda gofr hosil qiluvchi rolik

Rolikli mashinalarda ham profillash mumkin.

Buning uchun uzun lenta fasonli roliklar orasidan o‘tkaziladi. Zarur shakl olish uchun roliklar jufti orasida ma’lum tirqish qoldiriladi. Roliklarning ayrim nuqtalarida aylana bo‘ylab tezligi turlicha.

Bunday hol zagotovka sirpanishiga imkon beradi. Lentaning sirpanishi profillash jarayonini uzluksiz tashkil etishga sharoit yaratadi.

Agar lenta bo‘ylama emas, ko‘ndalang tekislikda egilsa, profillash jarayoni gofrirlash deb nomlanadi.

Ushbu jarayon mahsus roliklar yordamida qilinadi (10.1-rasm). Gofrirlash ko‘ndalang tekislikda yoki ortiqcha, bo‘rtiq shakllar, ma’lum burchak ostida ham qilinadi.

